



**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI
ORQALI TARBIYAVIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH**

Abdug‘afurova Rayxona Shuhratjon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda ertak, maqol, topishmoq va boshqa og‘zaki ijod turlarining o‘quvchilarda axloqiy fazilatlar, nutqiy faollik hamda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, interfaol metodlar, xususan, rolli o‘yinlar va sahnalashtirish texnologiyalarining samaradorligi asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** xalq og‘zaki ijodi, boshlang‘ich ta‘lim, o‘qish savodxonligi, tarbiyaviy kompetensiya, interfaol metod, ertak, maqol, topishmoq.*

**DEVELOPING EDUCATIONAL COMPETENCIES THROUGH
FOLKLORE IN PRIMARY SCHOOL READING LESSONS**

***Abstract:** This article highlights the theoretical and practical foundations of developing students’ educational competencies through the use of folklore samples in primary school reading lessons. The study analyzes the role of fairy tales, proverbs, riddles, and other forms of oral creativity in shaping students’ moral qualities, speech activity, and social competencies. In addition, the effectiveness of*



interactive methods, particularly role-playing games and dramatization technologies, is substantiated.

Keywords: *folklore, primary education, reading literacy, educational competence, interactive method, fairy tale, proverb, riddle.*

РАЗВИТИЕ ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ЧЕРЕЗ УСТНОЕ НАРОДНОЕ ТВОРЧЕСТВО НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация: *В данной статье освещаются теоретические и практические основы развития воспитательных компетенций учащихся посредством использования образцов устного народного творчества на уроках чтения в начальной школе. В исследовании анализируется роль сказок, пословиц, загадок и других видов устного творчества в формировании у учащихся нравственных качеств, речевой активности и социальных компетенций. Также обосновывается эффективность интерактивных методов, в частности ролевых игр и технологий инсценировки.*

Ключевые слова: *устное народное творчество, начальное образование, читательская грамотность, воспитательная компетенция, интерактивный метод, сказка, пословица, загадка.*

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga nazariy bilim berish bilangina cheklanib qolmay, balki ularning shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini kompleks tarzda shakllantirishdan iboratdir.



Zamonaviy ta'lim paradigmasida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etib, bunda o'quvchining bilimni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy muhitga moslasha olishi muhim mezon sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs kamolotining eng muhim va hal qiluvchi davri hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda o'qish savodxonligi, nutq madaniyati, mantiqiy fikrlash hamda axloqiy qarashlarning shakllanishi keyingi ta'lim bosqichlarining samaradorligini belgilab beradi. Aynan shu davrda bolalarda yaxshilik va yomonlikni ajrata olish, ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish, o'z fikrini erkin bayon etish kabi asosiy hayotiy ko'nikmalar rivojlanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiyaviy komponentni kuchaytirish, uni o'qitish mazmuni bilan uzviy bog'lash dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Mazkur vazifani amalga oshirishda xalq og'zaki ijodi muhim didaktik va tarbiyaviy manba sifatida alohida o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi — ertaklar, maqollar, topishmoqlar, latifalar va dostonlar — o'zida xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari, urf-odatlar va milliy qadriyatlarini mujassam etgan.¹ Ushbu namunalar bolalar ongiga sodda, obrazli va ta'sirchan shaklda yetib borishi bilan ajralib turadi. Natijada o'quvchilar murakkab axloqiy tushunchalarni oson angelaydi va ularni real hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ertak va hikoyalarni o'qish jarayonida o'quvchilar matn mazmunini tushunish, uni tahlil qilish, asosiy g'oyani ajratib olish va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni

¹ Kamil Yashin (tahr.). **O'zbek xalq og'zaki ijodi**. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019
SJIF:5.219



egallaydi. Maqollar orqali esa qisqa va lo'nda fikr ifodalash, topishmoqlar yordamida esa mantiqiy tafakkur va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan qaraganda, xalq og'zaki ijodini interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirish ayniqsa samarali hisoblanadi. Xususan, rolli o'yinlar, sahnalashtirish, guruhli muhokamalar va muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilar nafaqat matn mazmunini chuqur anglaydi, balki o'z fikrini asoslab berish, muloqotga kirishish va jamoada ishlash kabi ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida alohida ilmiy-metodik tadqiq etishni talab etadi. Mazkur maqolada aynan ushbu masalaning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi hamda samarali pedagogik yondashuvlar asoslab beriladi. Pedagogika fanida xalq og'zaki ijodining ta'lim jarayonidagi o'rni keng o'rganilgan. Ko'plab tadqiqotlarda ertak va maqollarning bolalarda axloqiy tarbiya va nutqiy rivojlanishga ijobiy ta'siri qayd etilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda esa xalq og'zaki ijodi interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirilganda, o'quvchilarning kompetensiyaviy rivoji yanada samarali bo'lishi ta'kidlanadi.²

Tadqiqot metodologiyasi doirasida bir qator ilmiy-amaliy usullardan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, pedagogik kuzatish metodi orqali o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, ishtiroki hamda o'quv materialini o'zlashtirish darajasi muntazam ravishda monitoring qilindi. Qiyosiy tahlil yordamida xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan darslar natijalari an'anaviy

² Jaloliddin Yo'ldoshev. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2021. SJIF:5.219



o‘qitish shakllari bilan solishtirilib, ularning samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari olib borilib, interfaol o‘qitish metodlari amaliyotda qo‘llanildi va ularning o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalariga ta’siri tahlil etildi. Tadqiqot jarayoni 3–4-sinf o‘quvchilari ishtirokida tashkil etilib, xalq og‘zaki ijodi namunalariga asoslangan dars mashg‘ulotlarining pedagogik samaradorligi ilmiy asosda baholandi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida axloqiy qadriyatlar asosiy o‘rin tutadi. Ertaklarda yaxshilik va yomonlik kurashi, adolat, halollik va mehnatsevarlik g‘oyalari yetakchi o‘rinda turadi. Masalan, 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligiga “Bog‘bon va nihol” rivoyati orqali o‘quvchilarda mehnatsevarlik va kamtarlik fazilatlari shakllantiriladi. Maqollar o‘zining qisqa, lo‘nda va ayni paytda chuqur mazmuni bilan o‘quvchilarda hayotiy xulosalar chiqarish, voqea-hodisalarni tahlil qilish hamda ulardan to‘g‘ri saboq olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Topishmoqlar esa bolalarning mantiqiy tafakkurini faollashtirib, ijodiy yondashuv, tezkor fikrlash va muammoni yechish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Shu jihatdan xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga bevosita xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi asosida turli tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki xalq og‘zaki ijodi namunalarida mujassam bo‘lgan hayotiy tajriba, milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar o‘quvchilarning shaxs sifatida kamol topishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar va dostonlar orqali bolalarda nafaqat bilim, balki hayotiy qarashlar, insoniy fazilatlar va ijtimoiy ko‘nikmalar ham shakllanadi.



Xususan, axloqiy kompetensiyalar doirasida halollik, adolat, mehnatsevarlik, sabr-toqat, mehr-oqibat va vatanparvarlik kabi muhim insoniy fazilatlar rivojlantiriladi. Masalan, ertak qahramonlari misolida yaxshilik va yomonlikning farqi, adolatning ustuvorligi hamda mehnatning qadri bolalar ongiga sodda va ta'sirchan shaklda singdiriladi. Bu esa o'quvchilarning axloqiy qarashlarini mustahkamlab, kundalik hayotda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Ijtimoiy kompetensiyalar orqali esa o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, jamoa bilan muloqot qilish, boshqalarning fikrini hurmat qilish hamda ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish ko'nikmalari tarkib topadi. Guruhli mashg'ulotlar, sahnalashtirish va rolli o'yinlar jarayonida bolalar o'zaro fikr almashadi, bir-birini tinglashni o'rganadi va jamoaviy qaror qabul qilish tajribasini orttiradi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi va kelajakdagi ijtimoiy faoliyatiga mustahkam zamin yaratadi.

Kommunikativ kompetensiyalar esa o'quvchilarning nutqiy ifoda, o'z fikrini aniq, ravon va asosli bayon etish malakasini oshiradi. Xalq og'zaki ijodi matnlarini tahlil qilish, qayta hikoya qilish, maqollarning mazmunini sharhlash yoki topishmoqlarga javob topish jarayonida bolalar so'z boyligini kengaytiradi, og'zaki nutq madaniyatini rivojlantiradi hamda muloqot jarayonida o'z fikrini erkin ifodalashga odatlanadi. Kognitiv kompetensiyalar esa tahlil qilish, mushohada yuritish va xulosa chiqarish kabi aqliy jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.³ Tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarga yechim topish kabi aqliy faoliyatlar topishmoq va rivoyatlar asosida samarali shakllanadi.

³ N.M. Egamberdiyeva. Tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. – Toshkent, 2020. SJIF:5.219



Natijada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va mantiqiy tafakkur kuchayadi. Shu jihatdan xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limda shaxsni har tomonlama rivojlantirishning samarali vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan o'qish darslarida interfaol metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Rolli o'yinlar, sahnalashtirish, guruhlarda ishlash hamda savol-javob texnologiyasi kabi usullar dars jarayonini jonlantirib, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Mazkur metodlar nafaqat darsni qiziqarli va mazmunli tashkil etishga yordam beradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi hamda muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi.⁴ Amaliy tajriba natijalari xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan darslarning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning darsga qiziqishi 35–40 foizga oshgani kuzatildi. Shu bilan birga, ularning nutqiy faolligi sezilarli darajada rivojlandi, axloqiy tushunchalarni anglash darajasi yuqori bo'ldi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllandi. Ushbu natijalar xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish o'quvchilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali va ta'sirchan pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini boyitadi, balki ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi hamda shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, ertak, maqol, topishmoq

⁴ Sh.A. Abdullayeva. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar. – Samarqand, 2021.
SJIF:5.219



va rivoyatlar orqali bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, odob-axloq me'yorlariga rioya qilish, mehnatsevarlik, halollik va vatanparvarlik kabi muhim sifatlar rivojlanadi. Kelgusida boshlang'ich ta'lim tizimida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish hamda o'quv dasturlariga kengroq joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa barkamol, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalashda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2022.
3. 3-sinf "O'qish savodxonligi" darsligi. – Toshkent: "Yangiyo'l poligraf servis", 2023.
4. 4-sinf "O'qish savodxonligi" darsligi. – Toshkent: "Yangiyo'l poligraf servis", 2023.
5. Kamil Yashin (tahr.). O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.
6. Jaloliddin Yo'ldoshev. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2021.
7. N.M. Egamberdiyeva. Tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. – Toshkent, 2020.



-
8. Sh.A. Abdullayeva. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar. – Samarqand, 2021.
 9. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.